

## **DINLARNING PAYDO BO'LISHI HAQIDAGI TASAVVURLAR VA ULARNING INSON DUNYOQARASHIGA TA'SIRI**

### **IDEAS ABOUT THE ORIGIN OF RELIGIONS AND THEIR INFLUENCE ON THE HUMAN WORLDVIEW**

#### **ПРЕДСТАВЛЕНИЯ О ПРОИСХОЖДЕНИИ РЕЛИГИЙ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА МИРОВОЗЗРЕНИЕ ЧЕЛОВЕКА**

Ilmiy rahbar; X. U. Samatov

TATU SAMARQAND filiali

Sh. Sh. Shodiyev

Talaba TTKT fakulteti AKT-2301 guruhi talabasi

Shodiyev Sh. Sh

electron pochta manzili: shohjahonshodiyev726@gmail.com

#### **Annotatsiya:**

Ilk diniy e'tiqodlarning vujudga kelishidagi tarixiy-tadrijiy bosqichlar, kishilarda ilk diniy e'tiqodning shakllanishi, ilk diniy e'tiqodlarning qachon va qaysi mintaqalarda vujudga kelganligi, insonlarning u e'tiqodlarni qabul qilishdagi qarashlari, ilk diniy e'tiqodlarning diniy, ilmiy, ma'naviy, tarixiy zamonaviy ko'rinishlari haqida tushuncha va tasavvurlarni shakllantiradi.

**Kalit so'zlar:**diniy tasavvur, qabila xudolari, totemizm,fetishizm, animizm, shomonlik, mifologiya, xudolar panteoni, zoomorfizm, antropomorfizm.

Dinning vujudga kelish sabablarini o'rganish qadimdan insoniyatni qizitirib kelgan va hozir ham bu muammo o'zining dolzarb ahamiyatini yo'qotmagan. Masalaning murakkabligi shundaki, ilk diniy qarashlar paydo bo'lgan insoniyat tarixining qadimgi davrlaridan bizgacha yetib kelgan ashayoviy manbalar va etnografik ma'lumotlar ilmiy xulosa chiqarishimiz uchun yetarli emas. "Inson qachondan beri Xudoga ishonib keladi?", "Din qachon paydo bo'ldi?" kabi savollar doimo olimlarni qiziqtirib,o'yantirib kelgan.Mazkur izlanishlar necha asrlardan beri davom etib kelayitgan bo'lsada, hali hanuz bu borada bir to'xtamga



kelinmagan.Umimiy ma'noda, bugungi kunda fanda dinlarning shakllanishi tarixiga oid ikki xil qarash mavjud.Birinchi qarashga ko'ra dinning paydo bo'lisi bevosita insoniyatning yaralishi bilan bog'liq. Xudo ilk insonlarni yaratishi bilan ularga O'zini tanitdi, natijada inson ilk dinga e'tiqod qila boshladi. Bunday qarash fanda "teologik yondashuv" deb nomlandi.Bugun mayjud bo'lgan har qanday din o'zining tarixini insoniyat yaralishi -ilk inson bilan bog'lashni ko'rishimiz mumkin. Jumladan, islom dinida - Odam va Havvo, yahudiylilik va xristianlikda - Adam va Yeva, zardushtiylikda - Govmard va boshqalar.Mazkur ta'limotlar dinlarning muqaddas manbalarida bayon qilingan.Teologik yondashuvga ko'ra turli buyumlarga sig'inish va ko'pxudolik,jumladan animizm, totemizm, fetishizm va shomonlik yakkaxudolikdan keyin yuzaga kelgan.Dinlarning kelib chiqishi haqidagi ikkinchi qarash fanda "materialistik yondashuv" deb nomlanadi. Mazkur qarashlarning paydo bo'lisi antik davrga borib taqalib, ilk bor qadimgi yunon faylasuflari qarashlarida aks etgan. XVII asrga kelib Yevropada cherkov hokimiyatining susaya boshlashi, hurfikrlik namoyandalari - din tanqidchilarining paydo bo'lisi, XIX asrning ikkinchi yarmida Charliz Darwin tomonidan "Turlarning kelib chiishi"(1859) nomli asarining chop etilishi ham turtki bo'ldi.Keyinchalik mazkur qarashlar Avgust Kont va Lyudvig Buxnerlar tomonidan eng cho'qqisiga ko'tarildi. Unga ko'ra din bu ijtimoiy hodisa, inson tafakkuri, his-tuyg'ulari mahsulidir. Mazkur qarash tarafdarlari fikricha, dinlar soddadan - murakkabiga,umumiylidkan - xususiylikka, ko'pxudolikdan - yakkaxudolikka tomon uzoq tarixiy evolyutsion jarayonini bosib o'tgan.Umuman olganda,barcha ilmiy adabiyotlarda dinning paydo bo'lisi borasida bildirilgan fikrlar **gipoteza**(taxmin)lardan iborat. Ushbu masalaning diniy adabiyotlardagi talqini esa har bir insonning diniy e'tiqodiga bog'liq.

Fan dinning vujudga kelish sabablarini o'rganishda boshqa printsip va qonuniyatlargacha asoslanadi.Oadamning g'ayritabiyy kuch faoliyati natijasida paydo bo'lganligi g'oyasi inkor qilinadi. Fan dinni madaniyatning tarkibiy qismi sifatida ilmiy uslublarga tayanib o'rganadi. Dinni ilmiy o'rganish dalillarga asoslanadi. Dinshunoslik bu dalillarni tabiiy va ijtimoiy fanlardan oladi. Materialistik yondashuv tarafdarlari fikriga ko'ra, ilk diniy tasavvurlar quyidagilar bo'lgan:

**Totemizm.** Totem so'zi - Shimoliy Amerikada yashaydigan Objiva qabilasi tilida "uning urug'i" ma'nosini anglatadi. Uning mohiyati "odamlarning hayvonot yoki o'simliklarning muayyan turlariga qarindoshlik aloqalari bor", deb e'tiqod qilishidir. Urug'dosh guruhlar o'zlarining umumiyl belgilari va totemlari bo'lgan hayvon hamda

o'simlikdan chiqqan deb bilar edilar. Totemlar va odamlar orasidagi aloqalar uzoq o'tmishga tegishli bo'lib, uni qadimgi rivoyatlar tasdiqlaydi. Masalan, Avstraliya aborigenlari orasida saqlanib qolgan afsonalardagi tasavvurlarni aytish mumkin. Totemizm ta'sirida vujudga kelgan urf-odatlar, normalar asrlar davomida qat'iy ravishda qo'llaniladi. Tabu - taqiqlash, ya'ni totemni ozuqa sifatid iste'mol qilishni taqiqlash tizimi paydo bo'ldi. Faqatgina ba'zi diniy marosimlarda ruhoniylar yoki qabila boshliqlariga totemni yeish ruxsat etilgan. Totemizm urug'chilik jamoasi - eng birinchi ijtimoiy jamoalar diniy ko'rinishlarining tarixiy asosi bo'lib qoldi. Totemizmning asosiy vazifalari - birlashtiruvchilik va tartibga soluvchilik edi. Totemizm ibridoyn din shakllaridan bo'lismiga qaramasdan hozirda ham ba'zi xalqlarning urf-odatlari, e'tiqodlarida uning uning qoldiqlari saqlanib qolgan. Masalan, Hindistonda sigir, Avstraliyada kenguru, qirg'izlarda oq bug'u afsonaviy baxt keltiruvchi hayvon sifatida ulug'lanadi. Totemizmning mohiyatini odamlar bilan ayrim hayvonlar va o'simliklar orasida qandaydir yaqinlik, aloqa, qon-qarindoshlik, ajdodlik mavjud deb ishonish tashkil etadi.

**Animizm**(lotin tilida anima - ruh, jon ma'nolarini anglatadi). Animizm ruhlar mavjudligiga ishonch, tabiat kuchlarini ruhlantirish, hayvonot, o'simlik va jonsiz jismlarda ruh ong va tabiiy qudrat borligi haqida ta'limotni ilgari suruvchi ilk din shaklidir. U totemizm bilan bir vaqtida shakllangan. Animizm tabiatning qudratli kuchlari - osmon va yer, quyosh va oy, yomg'ir va shamol, momaqaldiroq va chaqmoqlarni iloyihlashtirib, ularda ruh mavjud deb bilar edi. Ibtidoiy odamlar tog'lar, daryolar, adir, o'rmonlar, daraxtlar, xarsang tosh, jarliklar ham jonli, tafakkurli, sezuvchi va harakat qiluvchi, yaxshilik va yomonlik keltirishi mumkin deb tushunganlar. Ularga qurbanliklar qilib haqqiga dou qilib, marosimlar uyushtirganlar. Animizm zamonaviy dinlarning asosiy aqidaviy qismini tashkil etadi. Jahan dinlarida ham ruhlar haqidagi ta'limot mavjud.

**Fetishizm**(fetish so'zi fransuzcha fetishe - but, sanam, tumor ma'nolarini anglatadi.) U tabiatdagi jonsiz predmetlarga sig'inishdir. Fetish ham salbiy, ham ijobiy ta'sir etish kuchiga ega. Fetish hisoblangan predmetlar orasida odam yoki hayvonlarning suyak qoldilari, qabr toshlari eng ko'p tarqalgan. Suyak qoldiqlari fetish egasini tabiiy ofatlardan, kasalliklardan, yovuz ruhdab saqlaydi deb hisoblangan. Qabr toshlari vafot etgan kishining tinchligini qo'riqlaydigan ruhlar joylashgan predmet vazifasini o'tagan. Qabr joylashgan hududga sig'inish natijasida keyinchalik muqaddas qadamjolar vujudga kelgan. Bunday qadamjolarda

maqbaralar, qo'rg'onlar qurilgan. Qadimda jonsiz fetishlar bilan birga jonli fetishlardan ham foydalanilgan. Jonli fetishlarga sig'inish barcha xalqlarda mavjud bo'lgan. Fetishlar asosan kuchli ruhni o'zida mujassamlashtigan va ijtimoiy hayotning ayrim sohalaridagi muammolarni hal etishga yordam bergan. Fetisizm yog'och, loy va boshqa materiallardan yasalgan buyumlarning paydo bo'lishi bilan bir paytda shakllangan. Jamoalar butlar va tumorlarda g'ayritabiyy dunyodan keladigan ilohiy qudratning timsolini ko'rgan. Ibtidoiy odamlar dastlabki diniy taassurotlarining shakllanish jarayonida fetishizm yakunlovchi bosqich bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan dunyo haqidagi tasavvurlar takomillashib bordi va insoniyat hayotida uzoq payt o'z ta'sirini o'tkazib keldi. Barcha dinlarda haykallar, suratlar, tumorlar, ko'zmunchoqlar va turli ramzlar hozirga qadar saqlanib qolgan.

**Shomonlik** yoxud sehrgarlik("shomon" so'zi tungus tilidagi ma'nosi "afsungarlik"). Afsun real natija olish uchun ilohiy kuchlarga ta'sir etish maqsadida amalga oshiriladigan odat va rituallar majmuasidir. U totemizm va animizm bilan bir vaqtida paydo bo'lgan. Shomonlik orqali kishilar o'z totemlari, ota-bobolarining ruhlari bilan xayolan bog'lanishni amalga oshirib kelishgan. U bilan maxsus kishilar – shomonlar, afsusngarlar shug'ullanganlar. O'tmishda ko'proq ayollar shomonlik bilan shug'ullanganlar. Shomonlar ritual harakatlari orqali – ovoz chiqarish, ashula aytish, raqsga tushish, sakrash yo'li bilan nog'oralar va qo'ng'iroqlar ovozlari ostida o'zlarini jazavaga solib, o'zini yo'qotish, jazavani yuqori natijaga yetkazish bilan afsungarlik qiliashgan. Shomon marosim oxirida bir holatga kelib hech narsani eshitmay, ko'rmay qolar edi. Shuning uchun uning ruhlar dunyosi bilan muloqoti xuddi shu holatda amalga oshadi deb hisoblangan. Shomonlikda ba'zi davrlarda shomonlar ishtirokida faqat ibodat qilish, qurbanlik qilinadigan holler ham uchraydi. Bora-bora shomonlik nasldan naslga o'tadigan bo'lib, shomonlik kasbiga aylangan. Afsungarlik odamlarning fikr yuritishi, ongning mustahkamlanishida katta rol o'ynadi. Bu diniy ongning shakllanishida muhim o'rinn tutadi.

**Sehrgarlik(magiya).** Sehrgarlik – odam, hayvon va tabiatga g'ayritabiyy yo'llar bilan ta'sir o'tkazish maqsadida bajariladigan xatti-harakatlardir. Bugungi kunda ham sehrgarlik urf-odatlari odamlar hayotida ma'lum daraja rol o'ynab kelmoqda. Buning sababi insonlar doimo omadli bo'lish, yaxshi hayot kechirish, sog'lom bo'lishni orzu qilib kelgan. Sehrgarlik insonning ana shu orzu-istiklarini qamrab olgan. Sehrgarlik marosimlari yakka holda yoki jamoa bo'lib amalga oshirilishi mumkin edi. Afsungarlik maqsadga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) Zarar keltiruvchi;
- 2) Harbiylar va quroq-aslahalarni sehrlash;
- 3) Sevish yoki o'zidan sovutish maqsadida "issiq", "sovuj" qilish;
- 4) Tibbiy xizmat koxsatish, davolash;
- 5) Ob-havo bilan bog'liq, ya'ni yomg'ir chaqirish.

Sehrgarlik dinlar va turli xalqlar urf-odatlarida saqlanib qolgan.

Kishi ongida diniy dunyoqarash paydo bo'lishi uchun tafakkur bilan bog'liq sharaoitlar talab etiladi. Masalan, abstrakt tafakkur, kuchli his-hayajon, tasavvur, to'g'ri va noto'g'ri mabtiqiy bog'liqliklarni farqlash qobiliyati kabilar shular jumlasidandir. Hozirgi zamon fani xomo xabilislarning shunday imkoniyatiga ega bo'lganligi to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega emas, lekin xomo saiensning dastlabki vakili – kramonyon odam voqelikni tahlil qilish, fikrlash, kundalik faoliyatida orttirgan tajribalarini yodda saqlash va avloddan avlodga o'tkazish singari imkoniyatlarga ega edi. Shunga qaramay, kramonyonlarning ajdodlariga nisbatan imkoniyatlari qanchalik keng bo'lmasin, bilim va imkoniyatlari qanchalik keng bo'lmasin, bilim va imkoniyatlari cheklanganligi bois ular tabiat kuchlari oldida ojiz bo'lganlar. Kromanyonlarda ko'p yillik tajribalar asosida to'plangan bilimlar bilan birga xayoliy fantastic shakllar ham shakllangan. Kromanyon tafakkurning rivojlanishi diniy qarashlarning abstrakt fikrlaydigan "yarim-yovvoyi" mavjudotning ongida paydo bo'lmasligi, balki kishilarning jamoalarga birlashib mehnat kishilari(ov qilish, oziq-ovqat topish, mehnat qurollari yasah kabi faoliyatları) natijasida, ularning doimiy ijtimoiy muloqotlari jarayonida shakllanganligidan dalolat beradi. Ibtidoiy jamiyatda diniy qarashlar qudratli xudolarga sig'inish shaklida vujudga kelmagana. Odamlar ruhlarga, tabiat hodisalari(suv, olov, oy, quyosh singari)ga va mavjudotlar (ot, bug'u, mushuk kabilalar)ga sig'inganlar. Shu bois ibridoyn din shakllari umumiyl nom bilan diniy kompleks(lotincha complexus – aloqa, birikma degan ma'nolarni anglatadi)deb ataladi. Diniy kompleks – predmetlar va mavjudotlarda g'ayritabiyy kuchlarning mavjud ekanligiga ishonuvchi kishilarning qarashlari va maxsus harakatlar tizimi. Ibtidoiy din shakllari kabi afsona ham kata ahamiyatga ega. O'sha davrda insonlar tabiat hodisalarini jonli sherik sifatida qabul qilganlar va ularda individual tafakkur, iroda singari sifatlar Myjud deb hisoblaganlar. Odamlar bu jarayonlarni his etganlar, fikrlaganlar va tushuntirib berishga harakat qilganlar. Afsona shu asnoda vujudga kelgan.



Hozirgi zamon dinlari murakkab tarkibiy qismga ega. Uning tarkibiy qismiga diniy ong, marosim va tashkilotlar kiradi. Diniy ong diniy dunyoqarash tarkibida muhim o’rin tutadi. Diniy ong diniy tasavvurlar, g’oyalar, his-tuyg’u va kayfiyatlarni ifodalaydigan qarashlar tizimidir. Dinni tarkibiy qismlari qatorida diniy ong ustuvor ahamiyatga ega, chunki diniy marosim va diniy tashkilot kishilar ongida va jamiyatda diniy tasavvurlarni mustahkamlaydi va saqlanib qolishiga ko’maklashadi. Diniy tarkibiy qismlar qatorida diniy ong bilan birga diniy marosim ham ahamiyatga ega. Biz dinni g’ayritabiyy kuchlarning mavjudligiga ishonch yoki kishilarning o’zaro munosabati va harakatlari sifatida ham baholashimiz mumkin. Bunday munosabatlar diniy marosim deb ataladi. Diniy marosim individ, guruh yoki tabaqalarning manfaatlari, g’oyalari va orzu-istikclarini ifodalaydigan munosabatlar va harakatlar tizimidir. Diniy g’oyalar, qarashlar, his-tuyg’ular va harakatlar tizimi diniy ta’limotni vujudga keltiradi. Dindorlar diniy marosim orqali muloqotning boshqa vositalari samara bermaydigan vazifalarni bajaradilar. Unda harakat yoki munosabat muayyan sirli mazmunni ifodalaydi. Har bir harakat yoki o’qilgan duo ramziy mazmun kasb etadi. Inson sig’inish obyekti o’rtasida g’ayritabiyy aloqa mavjudligiga ishonch mustahkamlanadi. Kishi diniy marosimlarni bajarish bilan g’ayritabiyy kuchni o’z ittifoqchisi va madadkoriga aylantirishga umid qiladi.

Yuqoridagi tahlildan ko’rinib turibdiki, din o’z tarkibiga ko’ra juda murakkab va rang-barang mazmunga ega. U insonning hissiy obrazli faoliyatidan tortib hayot manosini anglashi bilan bog’liq bo’lgan yuksak axloqiy-ma’naviy faoliyati, tafakkuri va ijodiga xos hodisalarni qamrab oladi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati**

1. Dinshunoslik: akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun o’quv qo’llanma. Z.Islomov, N.Muhamedov, F.Sindarova. /O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: “Niso Poligraf”, 2016. -120 b.
2. Dinshunoslikka kirish[Matn]: o’quv qo’llanma / D.Rahimdjonov, O.Ernazarov. – Toshkent: “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2018. –304 b.
3. Dinshunoslik asoslari: O’quv qo’llanmasi. – T.: O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008. – 240 b.
4. “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi Toshkent – 2013.